

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

OCHILOV TEMURMALIK

**TOTIM (*RHUS* L) TURKUM TURLARI BIOEKOLOGIYASI VA
KO'PAYTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**06.03.01 – O'rmon ekinlari. Seleksiya, urug'chilik va shaharlarni ko'kalamzorlashtirish.
O'rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o'rmonlarini barpo etish**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Ochilov Temurmaliq

Totim (*Rhus* L.) turkum turlari bioekologiyasi va ko‘paytirish
texnologiyasi..... 3

Очиллов Темурмалик

Биоэкология и технология размножения видов рода сумах
(*Rhus* L.) 19

Ochilov Temurmaliq

Bioecology and technology of reproduction of species of the genus sumakh
(*Rhus* L.)..... 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 39

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

OCHILOV TEMURMALIK

**TOTIM (*RHUS* L) TURKUM TURLARI BIOEKOLOGIYASI VA
KO'PAYTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**06.03.01 – O'rmon ekinlari. Seleksiya, urug'chilik va shaharlarni ko'kalamzorlashtirish.
O'rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o'rmonlarini barpo etish**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Qx1045 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamroyev Xusen Fatullayevich

qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Eshankulov Bobomurod Inayatovich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Baltaniyazov Jaqsiboy Sarsenbayevich

qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 11-noyabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260–48–00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz. Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazi binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№555124 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent, viloyati, Qibray tumani Universitet ko‘chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 31-oktabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 14-oktabrdagi №42-raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.I. Asatov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

M.Z. Xolmurotov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent

S.A. Yunusov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida charm va farmatsevtika sanoatida tabiiy oshlovchi moddalarga (taninlarga) talab ortib bormoqda. Ko‘plab davlatlarda kimyoviy sintez asosidagi oshlovchi moddalar o‘rniga biologik xavfsiz, ekologik toza tabiiy tanin manbalarini aniqlash vazifasi yuzaga kelgan. *Rhus* L. (totim) turkumi vakillari – xususan Bug‘ushoxsimon totim (*Rhus typhina* L.), Xitoy totimi (*Rhus chinensis* Mill.), Silliqlik totim (*Rhus glabra* L.) va Oshlovchi totim (*Rhus coriaria* L.) kabi turlar – barg, po‘stloq va mevalarida 15–25% gacha tanin moddalar saqlaydi. Shu bois, bu o‘simliklar ekologik toza oshlovchi xomashyo manbasi sifatida e‘tirof etilmoqda. Hozirgi kunda oshlovchi moddalarga bo‘lgan talabning yuqoriligi hamda “dunyo bo‘ylab oshlovchi moddalarga bo‘lgan talab yiliga 5,7%”¹ ga ortib borishi ushbu xomashyoni beruvchi o‘simliklarning tur tarkibini oshirishni va ularni ko‘paytirish texnologiyasini ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu o‘rinda, oshlovchi moddaga boy bo‘lgan totim turlarini bioekologik xususiyatlarini baholash, tabiiy tiklanish ko‘rsatkichlarini tadqiq etish va ko‘paytirish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyo bo‘yicha oshlovchi moddalarni olishda totim turlaridan keng ko‘lamda foydalanilib, Turkiyada zamonaviy bioiqlim modellarlaridan foydalangan holda uning o‘shish arealini tadqiq etish hamda kelgusidagi mavjudligini bashoratlash, Buyuk Britaniya va Ispaniyada innovatsion raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali mavjud totim daraxtlarining holatini tadqiq etish, Bolgariya, Hindiston, AQSH va Xitoyda ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali totim turlarining urug‘idan, vegetativ va *in vitro* usullarida ko‘chatlarini yetishtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqot ishlari totim turlarini ko‘paytirishga nazariy va amaliy jihatdan asos bo‘lmoqda.

Respublikamizda totim turlarining dendrologik tavsifini tadqiq etish, ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, uning bioekologik xususiyatlarini baholash, urug‘idan va vegetativ usullardan foydalanilgan holda ko‘paytirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmagan. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida «Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish» vazifalari belgilab berilgan. Shu o‘rinda turli maydonlarning yashillik darajasini oshirish hamda tashqi muhit omillarining salbiy ta‘sirini kamaytirishda hududlarga mos va tez o‘sadigan daraxt turlaridan samarali foydalanishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish dolzarb hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya ishi natijalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 avgustdagi PQ-4424-son «Respublikada o‘rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi, 2020 yil 6 oktabrdagi PQ-4850-son «O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi qarorlari hamda 2017 yil 17 iyuldagi VM-530-son «O‘rmon xo‘jaligi boshqarish tizimini yanada

¹ <https://www.alliedmarketresearch.com/tannin-market-A08966>

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarorlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlardagi vazifalarni ilmiy jihatdan asoslashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishlari respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo bo‘yicha totim turlarining sistematikasi, tarqalish arealini, bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish, ko‘paytirish hamda dorivorlik xususiyatlarini taxlil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu yo‘nalishda Xitoyda Q.Bu, Y.Hou, H.Fang, Z.Zhang, X.Bai, AQSH da L.K.Seiler, D.R.Decoteau, R.P.Marini, D.D.Davis, Turkiyada S.Kizil, M.Turk, Hindistonda A.Chakraborty, F.Ferk, T.Simić, A.Brantner, M.Dusinská, M.Kundi, C.Hoelzl, A.Nersesyan, S.Knasmüller, Janubiy Koreya D.Seo, K.Kim, H.D.Choi, M.Yoo, J.Ha, K.W.Lee, Eronda Z.Hajmohammadi, S.Shams, M.J.Zibainejad, M.Nimrouzi, P.Fardidi, M.Heydari kabi olimlar shug‘ullanishgan bo‘lib, ular tomonidan yaratilgan shakl va navlardan plantatsiyalar barpo etishda samarali foydalanilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarda totim turlarini o‘rganish va uni ko‘paytirish ishlari bo‘yicha N.M.Mamatqulova, N.K.Xidirova, A.A.Mamadrahimov, YE.B.Mironenko, YE.Avotina, K.M.Shahidoyatov, I.A.Ivanko, A.F.Kulik, V.V.Nikolayeva, M.Aleksandrova, N.B.Bliznyuk, V.P.Nikolayenko, I.V. Belolipov kabi olimlar tomonidan olib borilgan va totim turlarining botanik tavsifi, kelib chiqish tarixi, fenologiyasi, tarqalish areali o‘rganilgan va ishlab chiqarishga tavsiya etilgan. Biroq, totim turlarining tashqi muhit omillariga munosabatini baholash, urug‘larni terib olish muddati va ularni ekishga tayyorlash usulini aniqlash, vegetativ usulda ko‘paytirish uchun yog‘ochlashgan qalamchalarni tayyorlash va ildiz oldiruvchi stimulyatorlardan foydalanishga qaratilgan tadqiqot ishlari o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №22-1-son «O‘zbekiston o‘rmonlarini ko‘paytirish va ularning mahsuldorligini oshirish» mavzusi doirasida bajarilgan (2022-2024 y.).

Tadqiqotning maqsadi: Turli hududlarda o‘sayotgan totim turkumi turlarining tashqi muhit omillariga munosabatini tadqiq etish va ularni ko‘paytirish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

totim turlarining tashqi muhit omillariga munosabatini aniqlash orqali ulardan foydalanish imkoniyatlarini baholash;

totim turlarining tabiiy tiklanish ko‘rsatkichlarini baholash;

totim turlari urug‘larini ekishga tayyorlash usullarining nihollar unib chiqishi va o‘sishiga ta‘sirini aniqlash;

totim turlari yog‘ochlashgan va ildiz qalamchalarni tayyorlash muddati, o‘lchamlari hamda ildiz oldiruvchi stimulyatorlarning qalamchalar ildiz olishi ta‘sirini aniqlash;

vegetativ usulda ko'chat yetishtirishning standart ko'chat chiqish darajasiga ta'sirini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Bug'ushoxsimon totim (*Rhus typhina L.*), Xitoy totimi (*Rhus chinensis Mill.*), Silliqlik totim (*Rhus glabra L.*), Oshlovchi totim daraxti (*Rhus coriaria L.*), mevalari, urug'i, urug'ko'chati, yog'ochlashgan va ildiz qalamcha, ildiz oldiruvchi stimulyatorlar (kornevin, geteroauksin "Root energy"), ko'chatlar olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib totimning bioekologik xususiyatlari, urug'larni terib olish muddatlari, ekishga tayyorlash usullari, qalamchalarning ildiz olish va saqlanib qolish darajasi, o'sish ko'rsatkichlari, standart ko'chat chiqish darajasi xizmat qilgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida hamda marshrutli kuzatuv uslublaridan foydalanilgan holda olib borildi, daraxtzorlarning holati va biomorfologik ko'rsatkichlari G.N.Zayseva [1973] uslubi, tashqi muhit omillariga munosabatini baholash bo'yicha S.V.Arestova, YE.E.Arestova [2017] uslubi, urug'idan va vegetativ usulda ko'paytirish umumqabul qilingan uslublar bo'yicha, tajriba o'tkazilgan hududning iqlim sharoitlari "Toshkent" meteostansiyasi ma'lumotlari, olingan natijalarning statistik tahlili B.A.Dospexov [1986] uslubi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor totim turlarini tashqi muhit omillariga munosabati tahlil etilib ko'kalamzorlashtirish va himoya daraxtzorlarini barpo etishda foydalanish mumkinligi isbotlangan;

totim turlari orasida oshlovchi totimda tabiiy tiklanish juda yuqori $KG \leq 0$ bo'lib, Toshkent viloyati va Toshkent shahridagi sillikli totimda qoniqarsiz $KG \geq 0$ ekanligi aniqlangan;

totim turlari urug'lariga 96 % sulfat kislotaning 0,03% li eritmasi bilan 30 daqiqa ishlov berish orqali 40% unuvchanlikka erishilgan bo'lib, ishlov berilmagan variantga nisbatan 36-38% yuqori natijaga berishi aniqlangan;

yog'ochlashgan qalamchalarga ildiz oldiruvchi "Root Energy" stimulyatori bilan ishlov berish orqali ildiz olish darajasi 2-4% ga hamda o'sish ko'rsatkichi 1,2-1,4 marotabaga yuqori bo'lishi aniqlangan;

14 sm uzunlik va 20 mm diametrga ega bo'lgan ildiz qalamchalarni yanvar oyining uchinchi o'n kunligida tayyorlash hamda mart oyining uchinchi o'n kunligida ekish orqali ko'chatlarning eng yuqori (80%) tutib qolish darajasi aniqlangan;

ildiz qalamchalaridan ko'paytirish orqali standart ko'chatlar tayyorlash muddatini 1 yilga kamaytirish va ularning miqdorini o'rtacha 1,6-1,8 martagacha oshirish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Toshkent viloyatining turli hududlarida o'sayotgan totim daraxtlarini tashqi muhit omillariga munosabatini baholash orqali barcha hududlarda ko'kalamzorlashtirish va himoya daraxtzorlari barpo etish maqsadida foydalanish mumkinligi aniqlangan;

totim turlarining 1 ta urug' to'plamida o'rtacha 1200-1800 dona urug' mavjud bo'lib, muddat noyabr oyining birinchi o'n kunligi terib olingan urug' to'plamlaridan ajratib olingan urug'larni sulfat kislotaning 0,03% li eritmasi bilan 30 daqiqa ishlov

berish orqali 40% unuvchanlikka erishishgan;

turli o'lchamdagi yog'ochlashgan qalamchalarni ildiz oldirishda "Root Energy" stimulyatoridan foydalanish orqali qalamchalarning ildiz olish va saqlanib qolish darajasini 2-4% ga yetkazish hamda o'sish ko'rsatkichini 1,2-1,4 marotabaga oshirish mumkinligi aniqlangan;

vegetativ usulda ko'paytirishda 1-3 yillik 12-18 sm uzunlikka ega bo'lgan turli diametrli ildiz qalamchalardan foydalanish mumkin bo'lib, uzunligi 14 sm diametri 20 mm bo'lgan 2 yillik ildiz qalamchalarini yanvar oyida tayyorlab mart oyida ekish orqali qalamchalarning ildiz olish darajasini 80% gacha oshirishga erishilgan;

totim turlari standart ko'chatlarini vegetativ usulda 2 yilda yetishtirish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markaz, Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan tuzilgan aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholanganligi, ilmiy tadqiqotlar hisobotlarining institut ilmiy kengashida muhokama etilganligi va ijobiy taqriz olinganligi, tajriba ma'lumotlarining statistik tahlildan o'tkazilganligi, olingan ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi, tajriba natijalarining xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda bayon etilganligi hamda mahalliy va xorijiy nashrlarda maqolalar chop etilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati totim urug'larini terib olish va ekish muddatlarini aniqlanganligi, 96% li sulfat kislotani 0,03% li eritmasidan foydalanish orqali urug' unuvchanligini 40% ga yetkazilganligi, ko'chatlarini yetishtirishda 14 sm uzunlikdagi ildiz qalamchalardan foydalanish orqali 80% natijaga erishilganligi, Toshkent shaxri, Toshkent va Surxondaryo viloyati hududlarida mavjud bo'lgan Bug'ushoxsimon totim, Xitoy totimi, Silliqlik totim va Oshlovchi totim turlari daraxtlarining tashki muhit omillariga munosabati baholanganligi, urug'idan va ildiz qalamchasidan ko'paytirish texnologiyasining ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati terib olingan urug'larni ekishga tayyorlash usulining ishlab chiqilganligi, qalamcha o'lchamlarining ildiz olish va o'sish darajasiga ta'sirining aniqlanganligi, ildiz oldiruvchi stimulyatorlarning yog'ochlashgan qalamchalar ildiz olish va o'sish darajasiga ta'sirini baholanganligi, qalamchalarni tayyorlash va ekish muddatlarini standart ko'chatlar chiqishiga ta'siri aniqlanganligi, hamda ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Totim turlarining bioekologik xususiyatlari va ko'paytirish texnologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

o'rmon xo'jaliklari uchun "Totim (*Rhus L.*) ko'chatlarini ko'paytirish texnologiyasi" mavzusidagi tavsiyanoma tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni himoya qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025 yil 3 fevraldagi 03-03/1-03/3-1036-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma o'rmon xo'jaliklarida totim turlari ko'chatlarini yetishtirishda qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

Totim (*Rhus L.*) ko'chatlarini vegetativ usulda yetishtirishda ildiz qalamchalarni tayyorlash ishlanmasi Burchmulla, Uzun va Hisor ixtisoslashgan davlat o'rmon

xo'jaliklari ko'chatxonlarining 1,2 gektar maydoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni himoya qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025 yil 3 fevraldagi 03-03/1-03/3-1036-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida 1 gektar maydonda ko'chat yetishtirish va uni sotish orqali 525 mln so'm daromad olingan;

Totim (*Rhus L.*) ko'chatlarini yetishtirishda urug'larni terib olish muddatlari va va ekishga tayyorlash ishlanmasi Burchmulla, Uzun va Hisor ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaliklari ko'chatxonlarining 1,2 gektar maydoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni himoya qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025 yil 3 fevraldagi 03-03/1-03/3-1036-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida ko'chat yetishtirish va uni sotish orqali gektaridan 450 mln so'm daromad olingan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Qishloq xo'jaligi falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 5 tasi xorijiy jurnallarda hamda 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish bo'limida hozirgi vaqtda butun dunyo miqyosida totim turlarini ko'paytirish bo'yicha erishilgan yutuqlar, ko'chatlarini yetishtirish agrotexnikasi, ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi bayon etilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning «**Totim turlari tavsifi, tarqalishi va ko'paytirish bo'yicha adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan bu bobida mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, internet ma'lumotlari hamda ko'plab olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, totim turlarining sistematikasi, tarqalish areali, qo'llanilishi, dorivorlik xususiyatlari, urug'idan va vegetativ usullarda ko'paytirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar hamda uning bioekologik xususiyatlari, fenologiyasi, ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan dastlabki ilmiy-tadqiqot natijalari tahlil etilgan hamda mavzuning dolzarbligi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot ob'ekti, dasturi va uslubi**» deb nomlangan ikkinchi bobida kutilgan natijaga erishish uchun bajarilishi lozim bo'lgan tadqiqot ishlarining dasturi, uslubi va tadqiqot ob'ektining tuproq-iqlim sharoitlari bayon

etilgan. Dasturda belgilangan masalalar dala tajribalari va laboratoriya tahlili orqali o'rganildi. Dala tajribalari marshrutli kuzatuv asosida Toshkent shahri, Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida olib borildi. Totim (*Rhus L*) tavsifi, tarqalishi va ko'paytirish bo'yicha adabiyotlar sharhi chop etilgan ilmiy maqolalar, ilmiy adabiyotlar, hisobotlar va boshqa ilmiy manbaalar asosida tahlil etildi. Tadqiqot o'tkazilgan hududning iqlim sharoitlariga tavsif berish uchun "Toshkent" meteostansiyasi va Surxondaryo viloyati. Uzun tumani ma'lumotlaridan foydalanildi. Daraxtzorlarning holati va biomorfologik ko'rsatkichlari B.N.Zayseva [1973] uslubida, tashqi muhit omillariga munosabati Aresteva uslubida 100 ballik shkalada o'rganildi. Tadqiqot natijasida olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturida 95% aniqlikda B.A. Dospexov [1986] uslubi asosida amalga oshirildi. Statistik tahlil qilishda o'rtacha arifmetik qiymat, tajriba xatoligi, o'rtacha kvadratik chetlanish, variatsiya koeffitsiyentining qiymatlari shakllantirildi.

Tadqiqot ishlari dala, laboratoriya va marshrutli kuzatuv usullaridan foydalanilgan holda olib borildi. Dala ishlari marshrutli kuzatuv asosida Toshkent shahri Qoqa-qamish, Yangi o'zbekiston dahalarida, Yunisobod tumani, ToshDAU kichik tajriba xo'jaligi hududlarida o'sayotgan totim daraxti turlarining holati o'rganildi hamda 100 ballik shkalada baholandi. Totim daraxti urug'idan va vegetativ usulda ko'paytirish bo'yicha tajribalar Toshkent davlat agrar universiteti tajriba xo'jaligi hududida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning «**Totim (*Rhus L.*) turkumi turlarining bioekologik xususiyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida hududlardagi daraxtzorlarning holati, turli hududlarda o'sgan daraxtlarning bioekologik xususiyatlari va tashqi muhit omillariga munosabati bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Totim turlari Toshkent shahri va Surxondaryo viloyatining Uzun davlat o'rmon xo'jaligi hududida ixota va ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida ekilgan. Tanlab olingan maydonlardagi daraxtlarning yoshi turlicha bo'lganligi sababli ularning taksatsion ko'rsatkichlari ham turlicha bo'lganligi kuzatildi. Daraxtlarning yoshi bo'yicha Qoraqamish massivi hududidagi daraxtlar katta yoshli bo'lib, ularning yoshi 22 yilni tashkil etganligi, Yunusobod tumani Posira mahallasi hududidagilar 18 yosh, Yangi O'zbekiston massivi hududidagi daraxtlar 20 yosh va ToshDAU o'quv-tajriba xo'jaligi hududidagi daraxtlar 6 yosh ekanligi aniqlandi. Xitoy totimi ko'kalamzorlashtirishda kam foydalanilgan bo'lib, hozirgi kunda Toshkent Botanika bog'ida mavjud ekanligi aniqlandi. Shundan so'ng uni ko'paytirish orqali ToshDAU o'quv-tajriba xo'jaligi hududida ham o'stirildi. Xitoy totimi qisqa muddatda bargini to'kishi hamda gullash xususiyati bilan boshqa turlardan farqlanadi. Toshkent Botanika bog'i hududidagi daraxtlarning o'rtacha balandligi 4,1 m, diametri esa 7,6 sm ga yetgan bo'lib, ToshDAU o'quv-tajriba xo'jaligi hududida o'stirilgan daraxtlar 2,3 m balandlikka hamda 6,1 sm diametrga yetdi. Oshlovchi totim tabiatda asosan kichik daraxt yoki yirik buta ko'rinishida uchraydi, tabiiy holda Surxondaryo viloyatining Hisor tog' tizmasi hududlarida o'sadi. Uni boshqa hududlarda o'stirish bo'yicha olib borgan tajribalarimiz samarasiz bo'ldi.

Ushbu tur hozirgi vaqtda Hisor ixtissoslashgan davlat o'rmon xo'jaligi va Uzun davlat o'rmon xo'jaligi hududlarida o'sib rivojlanib, ularning o'rtacha balandligi Hisor ixtissoslashgan davlat o'rmon xo'jaligida 1,8 m, Uzun davlat o'rmon xo'jaligida 1,4

m, oʻrtacha diametri Hisor davlat ixtisoslashgan davlat oʻrmon xoʻjaligida 6,9 sm, Uzun davlat oʻrmon xoʻjaligida 6,1 sm, shox-shabba oʻlchami 0,5-0,9 m ekanligi aniqlandi. Silliq totim tabiiy holda Shimoliy Amerika hududlarida tarqalgan boʻlib, mevasi toʻp holatda ekanligi hamda barg bandidagi barglar soni koʻpligi bilan boshqa turlardan farqlanadi. Ushbu tur sovuq iqlimli hududlarda tarqalganligi sababli uning Toshkent Botanika bogʻi hududida oʻstirilgan koʻchatlarini ToshDAU oʻquv-tajriba xoʻjaligidagi maydonlarda va Burchmulla davlat oʻrmon xoʻjaligi hududlarida oʻstirildi. Hozirgi vaqtda ushbu tur ToshDAU oʻquv-tajriba xoʻjaligi hududida 2,9 m, Burchmulla davlat oʻrmon xoʻjaligi hududida esa 2,1 metr balandlikda yetganligi aniqlandi. Diametri esa 9,1 va 7,0 sm ni tashkil etmoqda.

Hududlar boʻyicha daraxtlarning sovuqqa chidamliligini baholashda asosan bir yillik novdalarning holati tahlil etildi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat qish mavsumida balki bahorgi kechki va kuzgi ertangi sovuqlar vaqtida ham amalga oshirildi.

1-jadval

Turli hududlarda oʻsayotgan totim daraxtzorlarini kompleks baholash natijalari (2022-2024 yillar)


№	Tumanlar nomi	Kompleks bahosi, 100 ball
Bugʻushoxsimon totim		
1	ToshdAU oʻquv-tajriba xoʻjaligi	87/100
2	Qoraqamish dahasi	87/100
3	Yangi oʻzbekiston	87/100
4	Yunusobod tumani	87/100
Xitoy totimi		
5	ToshdAU oʻquv-tajriba xoʻjaligi	87/100
6	Toshkent Botanika Bogʻi	87/100
Oshlovchi totim		
7	Hisor ixtisoslashgan davlat oʻrmon xoʻjaligi	49/100
8	Uzun davlat oʻrmon xoʻjaligi	49/100
Silliq totim		
9	ToshdAU oʻquv-tajriba xoʻjaligi	87/100
10	Burchmulla davlat oʻrmon xoʻjaligi	87/100

Qurgʻoqchilikka chidamliligini baholash uchun yogʻingarchiliksiz vaqtlarda daraxtlarning turli joylaridan barglar olinib, ularning holati tahlil etildi. Buning natijasida tekislik hududlaridagi daraxtlardagi barglarda turgorni yoʻqotilishi yaʼni bargining chetlari pastga osilganligi, barg plastinkalari, barg kosalari burishgan va yosh novdalari soʻligan, tepa tomoni bilan pastga osilgan holatda ekanligi kuzatildi va ular 15 ball bilan baholandi. Hududlar boʻyicha tanlab olingan totim daraxtlarining barchasida novdalarning vegetatsiya davri davomida toʻliq yogʻochlashuvi, hayotiy shaklini saqlab qolishi, yuqorida darajada novda hosil qilishi, urugʻlarning toʻliq pishib yetilish holatlarining kuzatilganligi sababli ular baholash balining yuqori koʻrsatkichlari bilan baholandi. Faqatgina hududlardagi barcha daraxtlar sunʼiy ekilganligi yaʼni vegetativ usulda shakllanmaganligi sababli 7 ball bilan baholandi. Hududlar boʻyicha tahlil etilganda, Bugʻushoxsimon totim, Xitoy totimi va Silliy totimdagi barcha daraxtlarning kompleks baholash bali 87 ball ekanligi aniqlandi. Olimlar tomonidan tavsiya etilgan kompleks baholash koʻrsatkichlariga koʻra, 87 balga

ega bo'lgan daraxtlar hudud uchun istiqbolli hisoblanadi. Bu esa, ushbu turlardan kelgusida ham keng ko'lamda foydalanish mumkin ekanligini anglatadi. Oshlovchi totim esa hozirgi vaqtda tashqi muhit omillariga yuqori darajada moslashmaganligi sababli undan ko'kalamzorlashtirish va himoya daraxtzorlarini barpo etish maqsadlarida foydalanish tavsiya etilmaydi (1-jadvalga qarang).

Hududlardagi totim daraxtlarining tabiiy ko'payishini tahlil etish uchun 4 ta tajriba maydonlarida 10 tadan (jami 40 ta) tajriba maydonchalari o'rnatildi va ulardagi 1, 2, 3 va ko'p yillik ko'chatlar hisoblanib chiqildi. Unga tajriba maydonchalarida ko'chatlar miqdori umuman yo'q bo'lgan holatlari kuzatilmadi.

Tajriba maydonidagi yosh ko'chatlar miqdoridan kelib chiqqan holda hududdagi tabiiy ko'payish darajasi tahlil etish uchun 10x10 m² o'lchamli maydonchalar tanlab olinib, ulardagi ko'chatlar miqdori, o'lchamlari (balandligi va ildiz bo'g'zining diametri) aniqlandi.



1-rasm. Tajriba maydonlaridagi ko'chatlar miqdori, dona

Tajriba maydonlaridagi ko'chatlar soni 1-tajriba maydonida 257 dona (102 dona bir yillik, 90 dona ikki yillik, 45 dona uch yillik va 20 dona ko'p yillik), 2-tajriba maydonida 300 dona (120 dona bir yillik, 96 dona ikki yillik, 54 dona uch yillik va 30 dona ko'p yillik), 3-tajriba maydonida 245 dona (108 dona bir yillik, 78 dona ikki yillik, 39 dona uch yillik va 18 dona ko'p yillik), 4-tajriba maydonida esa 293 dona (126 dona bir yillik, 93 dona ikki yillik, 52 dona uch yillik va 22 dona ko'p yillik) ni tashkil etdi (1-rasmga qarang).

Dissertatsiyaning «**Totim (*Rhus L.*) turkumi turlarini ko'paytirish texnologiyasi**» deb nomlangan to'rtinchi bobida totim daraxti urug'larini ekishga tayyorlash usullari, ekish muddatlari, unuvchanligi va nihollarning saqlanib qolishi, vegetativ usulda ko'paytirish uchun qalamcha va ildiz qalamchalarni tayyorlash muddatlari, qalamcha o'lchamlarining ildiz olish ko'rsatkichlariga ta'siri, turli stimulyatorlarning qalamchalar ildiz olish ko'rsatkichlariga ta'siri, totim daraxti urug'idan va vegetativ usullarda ko'paytirishning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Totim turlarining urug‘larini unuvchanligini aniqlashda dastlab urug‘larni terib olish muddatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirildi. Buning uchun totim 4 ta turining urug‘lari oktyabr oyidan boshlab aprel oyigacha terib olindi va Toshkent Botanika bog‘i hududidagi 0,01 gektar maydonga ekildi. Buning uchun har bir tur bo‘yicha 100 donadan iborat bo‘lgan urug‘ namunalari turli variantlarda ekishga tayyorlanib unuvchanligi tahlil etildi.

Totim turlarining urug‘lari sentabr oyida pishib yetilganligi inobatga olgan holda dastlab fiziologik yetuklik davrida terib olingan holda ekildi. Bunda ekilgan 100 dona urug‘dan silliq totimning 12 dona, Bug‘ushoxsimon totimning 18 dona va Xitoy totimining 14 dona niholi unub chiqqanligi aniqlandi. Shundan so‘ng noyabr va dekabr oylarida terib olingan urug‘larning ham 2-10 dona niholi unib chiqqan bo‘lsa, yanvar va fevral oyida terib olingan hamda ekilgan urug‘larda 4 donadan nihol unib chiqdi. Mart-aprel oylarida terib olingan va ekilgan urug‘lardan 6-2 dona nihollar unib chiqdi. Oshlovchi totimda esa ushbu muddatlarda terib olingan va ekilgan urug‘larda unuvchanlik kuzatilmadi. Chunki oshlovchi totim tabiiy holda qurg‘oqchil tog‘li sharoitda o‘sganligi sababli uning urug‘lari tekislik hududlarida unuvchanlikni namoyon etmadi. (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Turli muddatlarda terilgan totim turlari urug‘larini laboratoriya sharoitida unish ko‘rsatkichlari, dona hisobida (2022-2024 yy.)

№	Tur nomi	Urug‘ ekish muddatlari bo‘yicha dala sharoitida unuvchanlik darajasi, 100 donaga nisbatan % hisobida						
		10.X	10.XI	10.XII	10.I	10.II	10.III	10.IV
1	Oshlovchi totim	0	0	0	0	0	0	0
2	Silliq totim	12	10	8	0	0	2	2
3	Xitoy totimi	14	10	8	2	2	6	6
4	Bug‘u shoxsimon totim	8	2	2	2	2	2	2

Totim turlarining urug‘larini unuvchanligini aniqlashda dastlab urug‘larni terib olish muddatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirildi. Buning uchun totim 4 ta turining urug‘lari sentabr oyidan boshlab aprel oyigacha terib olindi va Toshkent Botanika bog‘i hududidagi 0,01 gektar maydonga ekildi. Buning uchun har bir tur bo‘yicha 100 donadan iborat bo‘lgan urug‘ namunalari turli variantlarda ekishga tayyorlanib unuvchanligi tahlil etildi.

Totim turlarining urug‘lari oktabr oyida pishib yetilganligi inobatga olgan holda dastlab fiziologik yetuklik davrida terib olingan holda ekildi. Bunda ekilgan 50 dona urug‘dan silliq totimning 32 dona, bug‘ushoxsimon totimning 18 dona va Xitoy totimining 44 dona niholi unub chiqqanligi aniqlandi. Shundan so‘ng noyabr va dekabr oylarida terib olingan urug‘larning ham 2-10 dona niholi unib chiqqan bo‘lsa, yanvar va fevral oyida terib olingan hamda ekilgan urug‘larda 4 donadan nihol unib chiqdi. Mart-aprel oylarida terib olingan va ekilgan urug‘lardan 6-2 dona nihollar unib chiqdi. Oshlovchi totimda esa ushbu muddatlarda terib olingan va ekilgan urug‘larda unuvchanlik kuzatilmadi. Chunki oshlovchi totim tabiiy holda qurg‘oqchil tog‘li sharoitda o‘sganligi sababli uning urug‘lari tekislik hududlarida unuvchanlikni

namoyon etmadi. Ko'chat yetishtirish ishlarini amalga oshirishda asosiy xomashyo urug' hisoblanib, uni ekishga tayyorlash muhim omillardan biridir. Urug'larning terib olinish, muddati saqlanish sharoitlari va boshqa ko'rsatkichlari urug'larni unishi va ko'chat yetishtirishga turli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Urug'larning unuvchanligini aniqlashda dastlab umumqabul qilingan usul ya'ni stratifikatsiyalashdan foydalanildi. Totim urug'larini ekishga tayyorlash ishlari quyidagi tartibda amalga oshirildi:

1. 180 kunlik stratifikatsiya + bahorgi ekish;
2. Ikki bosqichli stratifikatsiya (I bosqich issiq muhitli stratifikatsiya, II bosqich sovuq muhitli stratifikatsiya) + bahorgi ekish;
3. 96% li sulfat kislotaning 0,03% li eritmasi bilan ishlov berish + kuzgi ekish;
4. 96% li sulfat kislotaning 0,03% li eritmasi bilan ishlov berish + bahorgi ekish;
5. Terib olingan urug'larni kuzda ekish (nazorat).

Totim turkumi turlari urug'larining sifat ko'rsatkichlari turlicha bo'lib, 1000 dona urug' og'irligi turlar bo'yicha oshlovchi totimda 4,2 g, Xitoy totimida 4,8 g, silliq totimda 5,2, bug'ushoxsimon totimda esa 5,5 g ni tashkil etadi. Shunga mos ravishda urug'lar tozaligi oshlovchi totimda 46,9%, Xitoy totimida 48,6%, silliq totimda 52,4%, bug'ushoxsimon totimda esa 56,8% ni tashkil etadi. Turlar bo'yicha urug'larning yashovchanligi 34,2-60,2% ga teng bo'lib, yuqori ko'rsatkich bug'ushoxsimon totim (60,2%) da, eng past ko'rsatkich oshlovchi totim (34,2%) da ekanligi aniqlandi.

Totim turkumi turlarini ko'paytirishda urug'idan va yog'ochlashgan hamda ildiz qalamchasidan foydalanish mumkin bo'ladi. Urug'idan ko'paytirishda urug'larni sentabr oyining birinchi dekadasidan aprel oyining birinchi dekadasigacha amalga oshirish mumkin. Bundan sentabr oyida terib olingan urug'larning unuvchanligi 14% gacha bo'lgan bo'lsa (xitoy totimi), ushbu ko'rsatkich fevral oyigacha kamayib mart-aprel oylarida yana 6% gacha yetishi aniqlandi. Oshlovchi totimda urug'larning unuvchanligiga ularni terib olish muddati ta'sir etmasligi aniqlandi. Terib olingan urug'larning unuvchanligini oshirish uchun ularni 96% li sulfat kislotaning 0,03% eritmasi bilan 30 daqiqa ishlov berish orqali 44% urug'larni unib chiqishiga erishish mumkin bo'ladi.

Totim urug'lariga 96% li sulfat kislotaning 0,03% li eritmasi bilan ishlov berish natijasida unib chiqqan nihollarning o'sishi natijasida ularning balandligi birinchi yili 60,4 sm, ikkinchi yili esa 116,3 sm gacha yetadi. Standart ko'chat chiqish ko'rsatkichlari oshlovchi totimda 40% bo'ladigan bo'lsa, boshqa turlarda ushbu ko'rsatkich 45% ni tashkil etdi. Silliq totim urug'ko'chatlarining o'sish ko'rsatkichlari dastlabki yilda sekin bo'lganligi kuzatildi ya'ni birinchi yili $12,7 \pm 1,6$ sm ga teng bo'ldi. 2 yildan boshlab o'sish ko'rsatkichi orta boshladi. Buning natijasida 2 yili $49,3 \pm 3,4$ sm o'sgan bo'lsa, 3-yili ushbu ko'rsatkich $54,3 \pm 6,4$ sm ni tashkil etdi. Ko'chatlar balandligi esa 2 yili $60,4 \pm 1,5$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, 3-yili $116,3 \pm 4,8$ sm ga teng bo'ldi. Yon shoxlar miqdori 1 yillik ko'chatlarda 2,0 dona, 2 yilliklarda 4,0 dona, 3 yilliklarda esa 7,0 donani tashkil etdi. 3 yillik ko'chatlardagi ildiz uzunligi $38,7 \pm 2,32$ sm, ildiz bo'g'zining diametri esa $18,0 \pm 1,25$ mm ni tashkil etdi.

Totim turlarini urug'dan ko'paytirish bilan birgalikda vegetativ organlar jumladan yog'ochlashgan qalamchasidan ko'paytirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi.

Buning uchun vegetatsiya davri tugagandan so'ng Bug'ushoxsimon, Xitoy, Oshlovchi va Silliqlik totimning yog'ochlashgan qalamchalaridan turli o'lchamli qalamchalar tayyorlandi (2-rasmga qarang).

Tajribalarda qalamchalar uzunligini ko'chatlarni ildiz olishiga ta'sirini o'rganish maqsadida 15, 20, 25, 30 sm uzunlikdagi kuzda tayyorlanib, tuproqda ko'mib saqlangan va bahorda ekilgan totim qalamchalarini ildiz olish va o'sish darajasi o'rganildi.

Qalamcha diametri bo'yicha o'tkazilgan tajribalarimizda diametri 8 mm dan 20 mm gacha bo'lgan yog'ochlashgan qalamchalardan foydalanildi. Qalamchalarga Root Energy stimulyatori bilan ishlov berildi.



2-rasm. Totim qalamchalari tayyorlash va o'sish jarayoni (2022-2024 yy.)

3-jadval

Paydo bo'lgan iliz ko'chatlarning ko'rsatkichlari

№	Variantlar		Ildiz kurtaklarining paydo bo'lish ko'rsatkichi %	O'sish ko'rsatkichlari		Ko'chatlarning saqlanib qolish darajasi, %
	diametr, mm	uzunlik, sm		d	h	
1	12	10	75	2±0,03	14±0,1	70
2	16	12	80	4±0,07	19±0,2	75
3	20	14	85	6±0,05	23±0,1	80
4	24	16	82	3±0,04	20±0,3	76

Tadqiqot mobaynida 2 martda tayyorlangan 100 dona qalamchalar dastlab yog'ochlik qatlamdagi zahira oziq moddalar hisobiga o'sib-rivojlansada, may oyining so'ngida kallyus hosil bo'lish holati kuzatilmadi. Buning natijasida tayyorlangan qalamchalar ildiz olishi kuzatilmadi. Qalamchalar uzunligi bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, 20.03 da 15 sm li – 70%, 20 sm li – 98%, 25 sm li – 90%, 30 sm li – 84%, 16.04 da 15 sm li – 35%, 20 sm li – 40%, 25 sm li – 45%, 30 sm li – 38%, 1.05 da 15 sm li – 15%, 20 sm li – 18%, 25 sm li – 20%, 30 sm li – 16%, 18.05 da esa 15 sm li – 5%, 20 sm li – 6%, 25 sm li – 6%, 30 sm li – 5% ko'rsatkichini tashkil etib, vegetatsiya so'ngida 2-4% ildiz olganligi aniqlandi

Totim turkumi turlarini yog‘ochlashgan qalamchalaridan o‘sishi qiyin hisoblanib, faqatgina ildiz oldiruvchi stimulyator “Root tnergy” dan foydalanish orqali 20 sm uzunlik va 14 sm qalanlikka ega bo‘lgan qalamchalarda Bug‘ushoxsimon va Xitoy totimida 4%, silliq totimda esa 2% li natijaga erishish mumkin. Bunda qalamchalar novdaning o‘rta qismidan tayyorlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4-jadval

Totim ko‘chatlarining o‘sib-rivojlanish ko‘rsatkichlari (2023-2024 yy.)

Ko‘chat yoshi	Ildiz bo‘g‘zining diametri, mm	Balandligi, sm	Shoxlanish darajasi, dona	Barg o‘lchami, mm
Bir yillik	45,9±0,34	138,6±0,64	5	24,6x34
Ikki yillik	60,4±0,45	186±0,74	7	36x46

5-jadval

Totim turkumi turlarining ko‘chatlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi

№	Ko‘rsatkichlar	Tur nomi			
		Silliq totim	Oshlovchi totim	Xitoy totimi	Bug‘ushox simon totim
1	Ko‘chat yetishtirish xarajatlari, mln so‘m/ga	35,42	40,32	35,42	35,42
2	1 gektar maydondan olinadigan ko‘chatlar miqdori, ming dona	71,428	71,428	71,428	71,428
3	1 dona ko‘chatning narxi, ming so‘m	15	15	15	15
4	Totim turlari bo‘yicha standart ko‘chat chiqish darajasi, %	45	40	45	45
5	1 gektardan olinadigan standart ko‘chatlar miqdori, ming dona	32,14	28,57	32,14	32,14
6	Yetishtirilgan ko‘chatlarni sotishdan keladigan daromad, mln so‘m/ga	482,1	428,55	482,1	482,1
7	Yetishtirilgan ko‘chatlarni sotishdan keladigan foyda, mln so‘m/ga	446,68	388,23	446,68	446,68
8	Rentabellik, %	92,62	90,59	92,62	92,62

Totim turlarini ko‘paytirishdagi eng samarali usul bu ildiz qalamchasidan ko‘paytirish hisoblanadi. Buning uchun 20 mm diametrli 14 sm uzunlikli ildiz qalamchalarni erta bahorda tayyorlab olish kerak. Ushbu qalamchalarni 8 sm gacha chuqurlikka ekish orqali 80% ko‘chat olishga erishish mumkin bo‘ladi. Bu orqali ko‘chatlarning yillik o‘shishini diametr bo‘yicha 6 mm, balandlik bo‘yicha esa 23 sm ga o‘shishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Ushbu ko‘chatlarning o‘sib rivojlanishi tahlil etilganda, Totimda ushbu ko‘rsatkichlar 138,6±0,64 va 186±0,74 sm ni tashkil etdi. Ko‘chatlarning shoxlanish

ko'rsatkichlari ham ularning o'sish ko'rsatkichlarigi mos ravishda o'zgarib, Totimda dastlabki yili 4 dona shoxlanish kuzatilgan bo'lsa, birinchi va ikkinchi yillarda ushbu ko'rsatkichlar 5 va 7 donani tashkil etdi.

Ko'chatlarning hisob-texnologik kartasini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi 530-son qaroridan foydalanildi. Tayyorlangan hisob texnologik kartadagi ko'rsatkichlarga ko'ra Bug'ushoxsimon totim, Xitoy va silliq totim ko'chatlarini yetishtirish uchun 35 420,0 ming so'm/ga, Oshlovchi totim ko'chatlarini yetishtirish uchun esa 40 320,0 ming so'm/ga mablag' talab etiladi.

Hozirgi vaqtda totim ko'chatlarini 15 ming so'm sotilishini hamda 1 gektar maydondan o'rtacha 28,57-32,14 ming dona/ga standart ko'chat olinishini inobatga olsak, ko'chatlarni sotish orqali 428 550,0-482 100,0 ming so'm/ga daromad olish mumkin bo'ladi. Ko'chat yetishtirish uchun qilingan xarajatlardan kelib chiqqan holda Bug'ushoxsimon totim, Xitoy totimi va silliq totim ko'chatlarini yetishtirish orqali 446,6800,0 ming so'm/ga, Oshlovchi totimdan esa 388,230,0 ming so'm/ga foyda olish mumkin bo'ladi.

XULOSA

Totim turkumi turlarining bioekologik xususiyatlari va ko'paytirish texnologiyasi bo'yicha olib borilgan tajriba ishlari natijalarini tahlili hamda ilmiy ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Respublikamizda totim turlaridan oshlovchi totim tabiiy holda tog'li hududlarda o'sib, 1960-1970 yillar oralig'ida Shimoliy Amerika va Sharqiy Osiyo hududidan 3 ta tur introduksiya qilingan bo'lib, introduksiya qilingan turlar ko'kalamzorlashtirish va himoya daraxtzorlarini barpo etish maqsadida foydalanilgan kelinmoqda. O'sayotgan daraxtlarning diametri Bug'ushoxsimon totimda 4,2-8,4 sm, Xitoy totimida 6,1-7,6 sm, oshlovchi totimda 6,1-6,9 sm, silliq totimda 7,0-9,1 sm, balandligi bug'ushoxsimon totimda 1,1-3,2 m, Xitoy totimida 2,3-4,1 m, oshlovchi totimda 1,4-1,8 m, silliq totimda 2,1-2,9 m, hamda turkumining introduksiya qilingan Bug'ushoxsimon totim, Xitoy totimi va silliq totim turlari tashqi muhit omillariga chidamli ekanligi, oshlovchi totim esa sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamsiz tur ekanligi aniqlandi;

2. Totim turkumi turlari kichik daraxt yoki buta bo'lib, ularda ildiz bachkisidan ko'payish xususiyati yuqori hisoblanadi. Tabiiy tiklanish tahlil etilganda, 1 pog m. dagi nihollar o'rtacha soni bug'ushoxsimon totimda 40,3-65,8 dona, Xitoy totimida 42,9-64,9 dona, silliq totimda 26,3-30,9 dona, oshlovchi totimda 42,9-54,2 donani tashkil etib, tabiiy tiklanish oshlovchi totim, bug'ushoxsimon totim va xitoy totim turlarida yuqori bo'lib, silliq totim turida esa qoniqarsiz ekanligi aniqlandi;

3. Totim turlari urug'larining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha 1000 dona urug' og'irligi oshlovchi totimda 4,2 g, silliq totimda 5,2 g, Xitoy totimida 4,8 g, bug'ushoxsimon totimda 5,5 g, urug' tozaligi 46,9-56,8%, yashovchanligi esa 34,2-60,2% ni tashkil etadi. Totim turlarining urug'i qattiq qobiqqa ega bo'lib, urug'ni ekishga tayyorlash uchun 96% li sulfat kislotaning 0,03% li eritmasidan foydalanib 30

daqiqa ishlov berish orqali urug‘lar unuvchanligini 44% ga, o‘shish ko‘rsatkichlarini 20% ga oshirish mumkin bo‘ladi;

4. Totim turlari yog‘ochlashgan qalamchalaridan ko‘paymasligi aniqlanib, faqatgina fevral oyida novdaning o‘rta qismidan olingan 20 sm uzunlikli va 14 mm diametrli yog‘ochlashgan qalamchalarga ildiz oldiruvchi stimulyator “Root Energy” bilan ishlov berish orqali 2-4% qalamchalarni ildiz oldirishga erishish mumkin bo‘ladi;

5. Totim turlari ildiz bachkisidan juda yaxshi ko‘payadi. Totim turlarining 14 sm uzunlikka va 20 sm diametrga ega bo‘lgan ildiz qalamchalarini 8 sm chuqurlikka ekish orqali 80% ko‘chat olish mumkin bo‘lib, ko‘chatlarning yillik o‘shish diametr bo‘yicha 6 mm, balandlik bo‘yicha esa 23 sm ni namoyon etadi;

6. Totim turlarini ildiz qalamchasidan ko‘paytirish oshlovchi totimda 40%, bug‘ushoxsimon totim, silliq totim va Xitoy totimidan 45% standart ko‘chat yetishtirish orqali oshlovchi totimdan 388 230,0 ming so‘m/ga, qolgan turlardan esa 446 680,0 ming so‘m/ga foyda olish mumkin bo‘ladi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish jarayoniga:

1 Totim turlari o‘zining manzaraviyligi va tashqi muhit omillariga chidamliligi jihatidan samarali bo‘lib, Bug‘ushoxsimon totim, xitoy totimi va silliq totimdan hududlarda himoya daraxtzorlari barpo etishda foydalanish;

2 Totim turlarining sentabr oyida terib olingan urug‘lariga 96% li sulfat kislotaning 0,03% eritmasi bilan 30 daqiqa ishlov berish;

3 Totim turlarining ko‘chatlarini yetishtirishda 14 sm uzunlikka va 20 sm diametrga ega bo‘lgan ildiz qalamchalarini 8 sm chuqurlikka ekish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ**

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АГРАРНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ОЧИЛОВ ТЕМУРМАЛИК

**БИОЭКОЛОГИЯ И ТЕХНОЛОГИЯ РАЗМНОЖЕНИЯ ВИДОВ РОДА
СУМАХ (*RHUS L.*)**

**06.03.01 – Лесные культуры. Селекция, семеноводство и озеленение городов.
Агролесомелиорация и защитное лесоразведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/Qx1045.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdau.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Хамроев Хусен Фатуллаевич
доктор философии по сельскохозяйственным наукам, доцент

Официальные оппоненты:

Эшанкулов Бобомурод Инаятович
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Балтаниязов Джаксидой Сарсенбаевич
доктор философии по сельскохозяйственным наукам

Ведущая организация:

Агентство по лесовосстановлению, зеленым зонам и борьбе с опустыниванием

Защита диссертации состоится 11 ноября 2025 года в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 при Ташкентском государственном аграрном университете (Адрес: 100140, Ташкент, ул. Университетская, 2-дом. Тел.: (+99871) 260-48-00; факс: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz. Здание Информационно-ресурсного центра Ташкентского государственного аграрного университета, 2- этаж, конференцзал).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрирована за номером 555124). (Адрес: 100140, Ташкент, ул. Университетская, 2-дом. Ташкентский государственный аграрный университет, здание Информационно-ресурсного центра. Тел.: (+99871) 260-50-43).

Автореферат диссертации разослан 31 октября 2025 г.

(реестр протокола рассылки № 42 от 14 октября 2025 г.).

Ш.И. Асатов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней,
д.с.х.н., профессор

М.З. Холмуротов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней,
д.ф.с.х.н., доцент

С.А. Юнусов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.с.х.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время во всем мире растёт спрос на натуральные дубильные вещества (танины) в кожевенной и фармацевтической промышленности. Во многих странах возникла задача выявления биологически безопасных, экологически чистых природных источников дубильных веществ вместо химически синтезированных. Представители рода сумах (*Rhus* L.), в частности, такие виды, как сумах грабовый (*Rhus typhina* L.), сумах китайский (*Rhus chinensis* Mill.), сумах гладкий (*Rhus glabra* L.) и сумах колючий (*Rhus coriaria* L.), содержат в листьях, коре и плодах до 15–25% дубильных веществ. Поэтому эти растения признаны источником экологически чистого дубильного сырья. В настоящее время возросший на дубильные вещества, а также “мировой спрос на эти вещества увеличивается на 5,7%”¹ в год, что требуют расширения видового состава растений источников этого сырья и разработки технологий их размножения. В связи с этим одной из актуальных задач является оценка биоэкологических свойств видов сумаха, богатых тонизирующими веществами, изучение показателей естественной регенерации и разработка технологии их селекции.

В мире виды сумаха широко используются для получения дубильных веществ, причем в Турции с использованием современных биоклиматических моделей проводятся исследования по изучению ареала его произрастания и прогнозированию его дальнейшего распространения, в Великобритании и Испании с использованием инновационных цифровых технологий изучают состояние существующих деревьев сумаха, в Болгарии, Индии, США и Китае с использованием передовых инновационных технологий выращивают саженцы видов сумаха из семян, вегетативным путем и методом *in vitro*. Данное исследование дает теоретическую и практическую основу для разведения видов сумаха.

